ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2024/ № 12

Termiz – 2024

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.12.2024
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz
Rasmiy sayt:
www.philologicalresearch.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, *filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)*
Shoxista Maxmaraimova, *filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)*
O‘ral Xoliyorov, *f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)*
Olmos Ulviy Binnatova, *f.f.d., professor (Ozarbayjon)*
Karl Rayxl, *f.f.d., professor (Germaniya)*
Vali Savash yelok, *f.f.d., professor (Turkiya)*
Dorota Silviya, *f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)*
Muslihiddin Muhiddinov, *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Ibodulla Mirzayev, *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Abdi Mamatov *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Suyun Karimov *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Muhammadxon Hakimov, *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Nafas Shodmonov *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Dilmurod Quronov, *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Murodqosim Abdiyev, *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Baxtiyor Mengliyev, *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Normat Yo‘ldoshev, *f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)*
Abdulla Xudoyqulov, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Bobonazar Murtazayev, *f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)*
Asqar Eshmo‘minov, *f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)*
Obidjon Shofiyev, *f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)*
Zafar Umurqulov, *f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)*
Nurali Amonturdiyev, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Hakim Ahmedov, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Ahad Shukurov, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Eshnazar Jabborov, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Abdumurod Arslonov, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Sirojiddin Turdimurodov, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Umida Raximova, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Gulchehra Begmatova, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Nargis Qurbonazarova, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Muyassar Xolova, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Shoira Omonturdiyeva, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Sherzod Turdiqulov, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Zaynura Qodirova, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Humayun Nadim Muhammad, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Dilrabo Ergasheva, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.12.2024
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100
Цена договорная
Заказ: 155
Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул.
Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
www.philologicalresearch.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, *доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)*
Шохиста Махмараимова, *доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)*
Урал Холияров, *ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)*
Олмос Улвий Биннатова, *д.ф.н., профессор (Азербайджан)*
Карл Райхл, *д.ф.н., профессор (Германия)*
Вали Саваш Елок, *д.ф.н., профессор (Турция)*
Дорота Сильвия, *PhD, доцент (Польша)*
Муслихиддин Мухиддинов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Ибодулла Мирзаев, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Абди Маматов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Суюн Каримов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Мухаммадхон Хакимов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Нафас Шодмонов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Дилмурод Куронов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Мурадкасим Абдиев, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Бахтиёр Менглиев, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Нормат Юлдашев, *д.ф.н., доцент (Узбекистан)*
Абдулла Худайкулов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Бобоназар Муртазаев, *ф.ф.н., доцент (Узбекистан)*
Аскар Эшмуминов, *д.ф.н., доцент (Узбекистан)*
Обиджон Шофиев, *д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)*
Зафар Умуркулов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Нурали Амонтурдиев, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Хаким Ахмедов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Ахад Шукуров, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Эшназар Джаббаров, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Абдумурод Арслонов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Сирожиддин Турдимуродов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Умида Рахимова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Гульчехра Бегматова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Наргис Курбаназарова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Муяссар Холова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Шаира Амонтурдиева, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Шерзад Турдикулов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Зайнура Кадирова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Хумаюн Надим Мухаммад, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Дильрабо Эргашева, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President`s Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.12.2024
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94
Offset printing. Offset paper
Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155

Printed at the
«Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
www.philologicalresearch.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, *doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)*
Shohista Makhmaraimova, *doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)*
Ural Kholiyorov, *PhD, associate professor (Uzbekistan)*
Olmos Ulviy Binnatova, *doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)*
Karl Rayxl, *doct.of philol. sciences, professor (Germany)*
Vali Salvash Elok, *doct. of philol. sciences, professor (Turkey)*
Dorota Silvia, *PhD, associate professor (Poland)*
Muslihiddin Mukhiddinov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Ibodulla Mirzaev, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Abdi Mmatov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Suyun Karimov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Muhammadkhon Khakimov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Nafas Shodmonov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Dilmurod Kuronov, *doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Muradkasim Abdiyev, *doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Bakhtiyor Mengliev, *doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Normat Yuldashev, *doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)*
Abdulla Khudaykulov, *PhD (Uzbekistan)*
Bobonazar Murtazaev, *cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)*
Askar Eshmuminov, *doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)*
Obidjon Shofiev, *PhD, associate professor (Uzbekistan)*
Zafar Umurkulov, *PhD (Uzbekistan)*
Nurali Amonturdiev, *PhD (Uzbekistan)*
Hakim Akhmedov, *PhD (Uzbekistan)*
Ahad Shukurov, *PhD (Uzbekistan)*
Eshnazar Jabbarov, *PhD (Uzbekistan)*
Abdumurod Arslonov, *PhD (Uzbekistan)*
Sirojiddin Turdimurodov, *PhD (Uzbekistan)*
Umida Rakhimova, *PhD (Uzbekistan)*
Gulchekhra Begmatova, *PhD (Uzbekistan)*
Nargis Kurbanazarova, *PhD (Uzbekistan)*
Muyassar Kholova, *PhD (Uzbekistan)*
Shoira Omonturdiyeva, *PhD (Uzbekistan)*
Sherzod Turdikulov, *PhD (Uzbekistan)*
Zaynura Kadirova, *PhD (Uzbekistan)*
Humayun Nadim Muhammad, *PhD (Uzbekistan)*
Dilrabo Ergashova, *PhD (Uzbekistan)*

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

JO‘RAYEVA BIBISH MUXSINOVNA,
TO‘XTAYEVA DILAFRUZ ASHUROVNA
Ekspressivlik va intensivlik munosabati.....7

ЁҚУБОВ ШАРИФ
Дарбанд, Темир дарвоза, Оққўтал ва
“Темирдан ясалган дарвоза” атамалари таҳлили 11

SHUKUROV AHAD AHMADOVICH
Tarixiylikni ifodalovchi eskirgan so‘zlar 15

AMONTURDIYEV NURALI RASHIDOVICH
O‘zbek tili izohli lug‘atlarida etnografizmlar aksi 18

RAXIMOVA UMIDA DJUMAYEVNA
Hamid Olimjon ijodida so‘z sehri 23

TURDIQULOV SHERZOD DUMINOVCH
Onomastik ko‘lamda teotoponimlar tadqiqi.....26

ABDURAXMANOV SHAVKATJON ASHUROVICH
Funksional sintaksis haqida mulohazalar.....29

VAFOYEVA MUXAYYO YULDOSHEVNA
Sinonimlarda miqdor o‘zgarishlarining ayrim ko‘rinishlari xususida.....32

TUYCHIYEVA OYDIN SAYFULLAYEVNA
Fors tilida shart-istak mayli qo‘llanilishining o‘ziga xos xususiyatlari.....36

SHAYMARDANOVA AZIZA RAIMJANOVNA
Intralingval lakunalarning lisoniy tabiati 40

DUSNAZAROVA MAVJUDA ILYAMONOVNA
Nikoh marosimlarida milliy o‘zlikning aks etishi.....46

KADIROVA SAIDA MAXSUDOVNA
Badiiy tasvir va ifoda vositalarining adabiyotdagi roli 49

МУНДАРИЖА

TO‘YCHIYEVA ZULAYHO HAMROQO‘LOVNA
Islomiy paremalogik religionimlar 53

ABDUVALIYEVA KAMOLA SHAVKAT QIZI
“Shajarayi turk” asaridagi etnonimlarning hozirgi
O‘zbekiston hududida etnotoponim sifatida uchrashi 56

RAHMATULLOYEV AHTAM A’ZAM O‘G‘LI
Fors tilida otning semantik tasnifi 60

HAMDAMOVA NASIBA TO‘RABEKOVNA
Diniy leksikaning semantik xususiyatlari
(ekzotik leksika, frazeologizmlar, paremiologik birliklar misolida).....64

YO‘LDOSHEVA NARGIZA
“Alpomish” dostonida mavjud fonetik dialektizmlar.....68

ВАПАЕВА АНАХОН НАСУРИЛЛАЕВНА
Молодёжный сленг в вузах: дешифровка
(на примере студентов Университета Маъмуна) 71

ИСМАИЛОВА ФЕРУЗА ИСМАИЛОВНА
Народные пословицы в произведениях русских писателей.....75

OBLOQULOVA ZILOLA ULUG‘BEKOVNA
O‘zbek tilida taqinchoq nomlari semantikasi.....79

ADABIYOTSHUNOSLIK

КАДИРОВА ОЛИЯ ХАМЕДОВНА
Жанровое многообразие циклических произведений.....83

TA’LIM

XOJIYEVA IRODA ZOKIRJON QIZI
Ta’lim tojik tilida olib boriladigan umumta’lim maktablarda o‘zbek tili
(davlat tili) fanini o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari 90

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, та'lim. 2024; 12
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

INTRALINGVAL LAKUNALARNING LISONIY TABIATI

Shaymardanova Aziza Raimjanovna,
Termiz davlat universiteti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

XX asrning boshlarida milliy va madaniy jihatdan xoslangan til birliklari tadqiq qilina boshlandi. Jahon tilshunosligida tilning ichki omillar ta'sirida boyishi va turli xil konseptlar misolida namoyon bo'lishi milliy tillarning xos belgisi bo'lib, madaniyatshunoslik kontekstida uning tabiati, mohiyati va vazifalarini ochib berish muhim ahamiyat kasb etadi. Tilning sistemaviy unsuri hisoblangan ushbu lingvomadaniy birliklarning tadqiqi ayniqsa, leksikologiya, leksikografiya, lingvomadaniyat uchun g'oyat muhim.

Til tizim sifatida ichki paradigmalari qanday birlik va shakllar bilan to'ldirilganligi bilan emas, balki qaysi "hujayralar" to'ldirilmaganligi, nima uchun to'ldirilmaganligi va "bo'sh hujayralar"da joylashishi kerak bo'lgan birliklar va shakllar qanday ko'rinishda bo'lishi kerakligi bilan xarakterlanadi[1]. Bu bizga til va uning evolyutsiyasidan muqobillarini izlash imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, "bo'sh hujayralar"ning konfiguratsiyasini aniqlash tilning rivojlanishi davomida yo'qolgan birliklar va shakllarning ko'rinishini qayta tiklashga yordam beradi[2].

Lisoniy tizimdagi ushbu "bo'sh hujayralar" – zaif bo'g'inlar ko'proq leksik-semantik, grammatik sathda kuzatilishi esa bu yo'nalishdagi izlanishlarni yanada rivojlantirish talabini qo'ymoqda. Lakunar birliklarni tasniflashda va konseptlar asosida tadqiq etishda til sistemasida qaysi elementlarning zaifligi va unga begona ekanligini hisobga olish muhim. Ushbu omil mazkur tizimning o'xshash tizimlarga nisbatan o'ziga xosligini uning funksiyasi, keyingi rivojlanish tendensiyalarini ham ma'lum darajada belgilaydi.

Lakuna bu – madaniy bilim obyekti sifatida rad etishlik, yagona tizimga xos madaniy kelishuv yoki aksincha, kelishmovchilik, qarama-qarshilik, odatiylik yoki metaforiklik, mavjud emaslik, mavjud bo'lsa-da, ommalashmaganlikdir. U funksional relevant va enantiosemik xususiyatiga ega til birliklarining o'zaro bog'liq va zid munosabatidan iborat hodisa.

Tillararo lakunalar tarjimada va tillarni o'rganuvchilar uchun muammolar paydo qilsa, bir tilga xos lakunalar esa muloqotda hamda o'zaro to'qnashgan shevalarning semantikasiga ta'sir va farq kabi muammolarni paydo qiladi.

Lisoniy belgining til tizimidagi joylashuvi va tartiblanishi, o'zga birliklar bilan munosabatga kirishuvida o'xshash va farqli jihatlar asosga olinadi. Bu mazkur belgini unga yaqin vazifa va belgilarni namoyon etuvchi birliklar bilan birga guruhlash, tasniflash imkonini bersa, farqlovchi jihatlar shu belgining aynanlik tabiatini ajratish sharoitini tug'diradi. Shu kabi, ichki lakunarlikni aniqlashda dastavval, tegishli lug'aviy birlikning o'z korrelyatiga ega/ega emas/ligini inobatga olish lozim[3].

Lakunologiya fan yo'nalishi sifatida umumiy ma'noda (kognitiv tilshunoslik chegarasida) o'z ichiga olgan prototipik birlik – "lakuna" termini bilan ishlaydi. Ushbu birlik sistemaviy qayta qurish, o'zgarish va okkazional xususiyatlarga ega. Jahon tilshunosligida bu tushuncha tilning leksik tizimidagi "bo'sh katakchalar", "ochiq joy", "bo'shliqlar", "tushunmovchilik", "yo'qlik" kabi so'zlar orqali ifodalangan[4].

S.A.Askoldov-Alekseyev, D.S.Lixachev, Y.S.Stepanov, Y.A.Sorokin, E.S.Kubryakova, A.P.Babushkin, Z.D.Popov, I.A.Sternin kabi tilshunoslarning bilim va g'oyalari, shuningdek, L.S.Vigotskiy, N.I.Jinkin, I.N. Gorelov, N.M.Bextereva, A.A.Leontev, A.A.Zalevskaya, A.R.Luriya, M.Turker, N.Q.Jusipov, B.T.Kulbayevalarning olib borgan tadqiqotlari, o'tkazgan tajribalari shuni ko'rsatadiki, lakuna aqliy kategoriya, ongda mavjud bo'lgan tushuncha, fikrlashdagi bir jarayon, hodisa mahsulidir. G.V.Bikova ta'kidlaganidek, u tilda "universal kod birliklari – kodlangan tushunchalar"[5] orqali amalga oshadi.

[1] Савицкая Е.В. Английские языковые лакуны в свете интралингвистического подхода: Дисс. кандидата филол. наук. – Самара, 2015. – С. 3.

[2] O'sha manba. – C. 3.

[3] Shaymardanova A.R. Intralingval lakunalarning lisoniy tabiati.// International conference of education, research and innovation. – Samara, Russian. 2023.– B.38.

[4] Shaymardanova A. Lakuna hodisasi va uni kompensatsiyalashning lingvistik imkoniyati. Наука и инновация, (2023). 1(4), 106–107. https://in-academy.uz/index.php/si/article/view/13605

[5] Быкова Г.В. Лакунарность в условиях одноязычной ситуации и межкультурном диалоге. – С.101. lakunarnost-v-usloviyah-odnoyazychnoy-situatsii-i-mezhkulturnom-dialoge.pdf

G.V.Bikova lakunani: *tizimli, kommunikativ, stilistik, mutlaq, nisbiy, motivlashgan, motivlashmagan, intersistemali (ichki tizimga taalluqli), giponimik, giperonimik, shakllantiruvchi, segmentar, latentli* va b. kabi turlarga bo‘ladi.

A.N.Proxorov tahriridagi “Советский энциклопедический словарь”da tilshunoslik va adabiyotshunoslikdagi lakunaga “probel”, “tushirib qoldirilgan so‘z”, “matnda yo‘qolgan joy” ma’nosida ta’rif berilgan[1]. Lakunaning filologik atama sifatida shunga o‘xshash ta’rifi bir qancha lug‘atlarda ham keltirilgan.

Lakunalar tasnifi borasida dunyo olimlarining yondashuvlari turlicha bo‘lib, lakunalarning turli xususiyatlaridan kelib chiqqan holda taklif etilgan tasniflar soni juda ko‘pchilikni tashkil qiladi. Binobarin, zamonaviy tilshunoslikda lakunaning tipologiyasi ishlab chiqilib, bu borada boy asoslar to‘plaganligiga qaramay, hodisaning yagona talqini borasida bir to‘xtamga kelinmagan.

Lakunalarning bir qadar batafsil tasnifini G.A.Bikova, Z.D.Popova va M.A.Sterninlarning[2] ishlarida kuzatamiz. Mazkur olimlarning tasnifiga ko‘ra lakunalarning bir nechta tiplari farqlanadi. Jumladan, *mavhumlik darajasiga ko‘ra*: predmetli va mavhum lakunalar. Predmetli lakunalar moddiy, jismoniy, hissiy jihatdan qabul qilinadigan predmet yoki hodisaning mavjud bo‘lmasligini ifodalaydi. Masalan, o‘zbek lingvomadaniyatidagi *kayvoni, holva* kabi so‘zlar xitoy tilida mavjud emas. Xuddi shunday, o‘zbek tilidagi mavhum tushuncha hisoblanmish *andisha* so‘zining xitoy tilida ayni muqobil variantini topib bo‘lmaganidek, mavhum lakunalar abstrakt tushuncha, tafakkur kategoriyasida mentofaktning mavjud emasligini ko‘rsatadi.

Jahon tilshunosligida tadqiqotchilar tomonidan milliy madaniyat ta’sirida yuzaga kelgan lakunalar bir necha konseptlar doirasida va turli yo‘nalishlar asosida aniqlangan (1-jadval).

1-jadval

Lakunalarning turli yo‘nalishlardagi tadqiqi

№	Intralingval va tillararo lakunalar	Matniy lakunalar	lisoniy tizim sifatida
1.	I.Sternin (1997)	I.K.Sitkareva 2001	Lovtsov (2005)
2.	G.Bikova (2003)	Y.A.Sorokin 1988	Kretov (2006)
3.	V.G.Gak (2006)	I.V.Tomasheva 1995	G.A.Gadjiev (2013)
4.	N.L.Dun (2007)		
5.	I.P.Matxanova (2009)		
6.	T.A.Tripolskaya (2009)		
7.	Y.V.Savitskaya (2015)		

Lakunaning boshqa fan sohalarida o‘rganilishi								
1.	Mantiqiy lakunalar (logika)	Gegel (1997)	Ontologiyasi(falsafa)	Losev (1994)	Arxitektura dizayni (informatika)	N.B.Ursavash (2022)	Pedagogika	D.O‘.Xoshimova (2007)
2.		Ivin (1998)		Sartr (2000)				
3.		Vitgenshteyn (2010)		Xaydegger (2003)				

Madaniyatlararo o‘zaro ta’sir natijasida kommunikantlar o‘rtasida vujudga keladigan bo‘shliqlarni bartaraf etish tizimi sinergiya prinsipiga asoslangan bo‘lib, bu bo‘shliqlarning sukut saqlash, kognitiv dissonans bosqichidagi “nol” belgiga egalik, dialektlardan foydalanib tushunchani qoplash, qarz olish imkoniyatlari aniqlangan va asoslangan. Lakuna madaniy hodisa sifatida nafaqat mahalliy, balki global miqyosda sodir bo‘ladigan madaniy jarayonlar bilan uzviy bog‘liqdir[3].

Yuqoridagi qarashlardan kelib chiqib, biz lakunaga quyidagi ta’rifni berishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz: lakuna bu – madaniy bilim obyekti sifatida rad etishlik, yagona tizimga xos madaniy kelishuv

[1] Прохоров А.Н. Советский энциклопедический словарь. – М.: Советская энциклопедия, 1981. – 1600 С. – М., 1981. https://gendocs.ru/v33236/?download2=1.

[2] Стернин И.А., Попова З.Д., Стернина М.А. Лакуна и концепты. /Лакуны в языке и речи: Сборник научных трудов/ – Благовещенск: Изд-во БГПУ, 2003. –С. 212.

[3] Дашидоржиева Б.В.Лакуна как объект культурологического знания // Вестник ЧитГУ № 10 (77) 2011. – С. 86.

yoki aksincha, kelishmovchilik, qarama-qarshilik, odatiylik yoki metaforiklik, mavjud emaslik, mavjud bo‘lsa-da, ommalashmaganlikdir.U funksional relevant va enantiosemik xususiyatiga ega til birliklarining o‘zaro bog‘liq va zid munosabatidan iborat hodisa.

Demak, ***tillararo lakuna***lar tarjimada va tillarni o‘rganuvchilar uchun muammolar paydo qilsa, **bir tilga xos lakuna**lar esa muloqotda hamda o‘zaro to‘qnashgan shevalarning semantikasida ham ta’sir va farq kabi muammolar paydo qiladi.

Ona tilimizga kirib kelgan o‘zlashma so‘zlar *ekzotizmlar* nomi bilan yuritilib, o‘zga madaniyatga xos realiyalarni ifodalaydi. *Ular “moda” tufayli og‘zaki yoki yozma amaliyotda qo‘llaniladigan, izohli lug‘atlarda qayd etilmagan va ma’nosi til hamjamiyatining ko‘plab vakillariga tanish bo‘lmagan so‘zlardir*[1].

Ekzotizm (varvarizm)larning quyidagi belgi va xususiyatlari mavjud: *a) chet tiliga xos so‘zni qabul qiluvchida tilda turli darajadagi assimilyatsiya, til me’yoriga amal qilmaslik holatining yuz berishi; b) sotsial jamoa doirasida qo‘llanilishi; v) o‘ziga xos “kolorit” yaratishga va boshqa madaniyat voqeliklarini bildirishga e’tibor qaratish; g) doimiy ehtiyoj yo‘qligi; d) chet tilini yaxshi biladiganlar nutqida uchrashi* [2]kabi. Nutqqa “jilo” berish maqsadida ekzotizmni matnga kiritish natijasida ko‘plab “qarzga olingan” so‘zlarning begonaligi payqalmaydi va farqlanmaydi. Ekzotizmlar shunchaki, notanish, qiyin talaffuz qilinadigan lisoniy birliklar bo‘lib ko‘rinadi. Bunday so‘zlarning leksik ma’nosi tarjima va tushunib anglashda ko‘pincha mos kelmaydi[3].

Ekzotik leksika ekstralingvistik omillar evaziga adabiy tilning lug‘atida mavjud, biroq uning nofaol qatlamidan o‘rin olgan so‘zlardir. Shunga qaramay, ekzotizmlardan ayrimlarining ma’nosi uzoq qo‘llanilish davriga ko‘ra umum tomonidan tushunarli bo‘lib qoladi[4]. Mas., *gipermarket, supermarket, multimarket, ayfon, smartfon, smartvoch, gadjet* kabilar. Tushuncha ifodalashning usuli sifatida bunday so‘zlardan foydalanish nutqda tez-tez uchraydi va muayyan vaziyatlarda chet el so‘zlarining o‘zgarmas holatidan foydalanib (mas., *lektor, volontyor, tyutor avatarka, anime, autsorting, layfxak, batler, onlayn, bloger, vebinar, kikstarter, koastering, kivorking, loukoster, agregator taksi, grumer, moshn dizayner, pikpoint, gadjet, karshering, keshbek, performans, slaumo, skrin/skrinshot, supervayzer, startap, tresh, feyk, feshenebelniy, fidbek, xedlayner, xolding, butik-otel, domen, messendjer, orbiting, tok-shou, top, trek, fleshmob, follover, xesh teg, chellendji, shoping, ekvayring* kabi) tushuntirish nutqiy qulaylikka ham sabab bo‘ladi. Tilda bunday so‘zlarga teng lug‘aviy birliklarning yo‘qligi muqobilsiz so‘zlarning safini biroz kengaytiradi. Ular semantik jihatdan turg‘un bo‘lib, ayrimlarigina ko‘chma ma’no ifodalaganda, neologizmga aylanishi mumkin.

Intralingval lakunalar leksemalarsiz sememalar hisoblanganda ham, ularni ifodalagan sememalar tilning leksik-semantik tizimiga kiritilgan bo‘ladi. Shu o‘rinda ichki lakunarlikka asos bo‘luvchi illogizmlarga to‘xtalish joizdir.

Illogizmlar – tilda leksema yoki sememalar orqali ifodalanmaydigan mental obrazlardir. Bunga G.V.Bikova quyidagi misolni keltiradi: “*rus tiliga xos go‘sht turini ifodalovchi говядина, баранина, ...kabi so‘zlar ishlatiladi ammo “qushlar” leksik-semantik guruhida ularning go‘shtini bildiruvchi tushunchalarni ifodalash uchun leksema va sememalar yo‘q. Bu tushunchalar odamlar ongida aniq tasavvurga ega va tilda bu sememalarining shakllanmaganligi leksemalarning keraksiz deb qaralganligi, unga ehtiyojning yo‘qligidandir*[5]”– deydi. (G.V.Bikovaning nazariy qarashlariga to‘liq qo‘shilamiz, ammo uning go‘sht bilan bog‘liq misollari o‘zbek tili uchun xos emas. Chunki o‘zbek tilida kaklik go‘shti, bedana go‘shti, kurka go‘shti farqlanadi.) Illogizmlardan farqli, lakunalarda nomlanish bo‘lmasa-da yoki notanish bo‘lsa-da, tushuncha mavjuddir[6].

Logoepistema (grek. *logos* so‘z, nutq, fikr + *epistéme* – bilim, tushuncha: lingvomadaniy atama sifatida V.G.Kostomarov va N.D.Burvikova (1996) tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan[7]) bir til vakillarining ijtimoiy va madaniy xotirasidagi voqeliklarning lingvistik ifodasidir. Undagi ba’zi bilimlar, ma’lumotlar matn ko‘rinishidagi lakunalarni qoplash vazifasini o‘taydi[8]:*“Ana senga uchinchi jahon urushi” yoki “8 mart”, “Bu yog‘i endi loy jangi”*va boshq.

Bundan tashqari geteroantroponimlarning (u yoki bu jins ma’nosi aks ettirilgan kishi ismlari) ayrimlari qo‘llanganda ham lakuna yuzaga kelishi mumkin.

[1] Muallif maqolasi asosida: Shaymardanova A. Intralingval lakunalarni yuzaga keltiruvchi lingvistik va ekstralingvistik omillar. Pedagogik islohotlar va ularning yechimlari. –B.74.

[2] Muallif maqolasi asosida: https://wordlyknowledge.uz/

[3] Muallif maqolasi asosida: Shaymardanova A.Intralingval lakunalarni yuzaga keltiruvchi lingvistik va ekstralingvistik omillar. Ilmiy tadqiqot va jamiyat muammolari.// Vol. 5 №. 1 (2023): 152-153

[4] Maxmaraimova Sh.T. Hozirgi o‘zbek tili (Leksikologiya). O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Firdavs-Shoh, 2021. – B. 266.

[5] Быкова Г.В. Лакунарност в условиях одноязычной ситуации и межкултурном диалоге. – С.103. file:///C:/Users/12345/Downloads/lakunarnost-v-usloviyah-odnoyazychnoy-situatsii-i-mezhkulturnom-dialoge.pdf

[6] Shaymardanova A.Intralingval lakunalarni yuzaga keltiruvchi lingvistik va ekstralingvistik omillar. Ilmiy tadqiqot va jamiyat muammolari.// Vol. 5 №. 1 (2023): 153

[7] https://dic.academic.pro/searchall.php?

[8] Muallif maqolasi asosida: Shaymardanova A. Intralingval lakunalarni yuzaga keltiruvchi lingvistik va ekstralingvistik omillar. Pedagogik islohotlar va ularning yechimlari. – B. 74-75.

Aytaylik, ham ayollar, ham erkaklar ismi bo‘la olgan nomlar qo‘llanilganda qaysi jins nazarda tutilganini farqlash qiyin bo‘ladi (masalan: *Sayqal, Dilshod, Sayxan, Hayot, O‘lmas, Karomat, Hidoyat, Iqbol, Inoyat* kabilar).

Lakunarlik hodisasi, ayniqsa, ikki tilli va ko‘p tilli lug‘atlarni tuzishda ko‘p kuzatiladi. O‘z muqobiliga ega bo‘lmagan so‘z ikkinchi tilda izoh berish yoki mazmunan mos birikmalarni keltirish yo‘li bilan beriladi. Biroq ikki tilni qiyoslash bilangina lakunarlik hodisasini to‘liq o‘rganib, u yoki bu tilning lug‘at boyligi borasida to‘g‘ri xulosaga kelib bo‘lmaydi. Chunki muayyan tushunchaga nom berish tilga ta’sir etadigan lingvistik va ekstralingvistik omillarga bog‘liq bo‘ladi.

Ma’lumki, tilshunoslikda antonimlarni aniqlash uchun “mantiqiy markaz” tushunchasiga murojaat qilinishi ko‘p uchraydi. Bunda ikki qarama-qarshi tushuncha o‘rtasida oraliq, ya’ni ikki tushunchaning “o‘rtancha”si bo‘lishi talab qilinadi. Agar bu “o‘rtancha” tushuncha mavjud bo‘lmasa, bu ham leksik bo‘shliq sifatida muayyan lisoniy kamchilik sifatida reallashadi[1].

Sh.Qalandarov ta’kidlaganidek, *“So‘zlarning barcha hosila ma’nolari madaniy xoslangan milliy ma’nolar hisoblanadi”*[2]. So‘zlarning boshqa tilda muqobili bo‘lmasligi, **madaniy xoslangan milliy ma’no**ga egaligidir.

Tarjima nazariyasi va amaliyotida tillararo lakunalarga to‘qnash kelamiz. Xuddi shunday holatni ona tilimizning til osti tizimlarini taqqoslaganda ham kuzatish mumkin. Jumladan, bir tilning leksik va frazeologik sathida ko‘plab ichki lakunalar, ya’ni bo‘sh, to‘ldirilmagan o‘rinlar mavjud. Misol uchun, o‘zbek tilida tez-tez ishlatiladigan *qog‘ozboz(lik)* [f.كاخذباز – bo‘lar-bo‘lmasga xat yozishni yaxshi ko‘radigan]; *qog‘ozbozlik* [amalda emas, qog‘ozdagina ish bitirish], *qog‘ozboz* [qog‘ozboz kabi ish tutish] so‘zlari “O‘TIL”da “amaliy ish o‘rniga keraksiz yozishmalar olib borish, qarorlar chiqarish bilan ovora bo‘ladigan, shu tarzda ishlashni yaxshi ko‘radigan shaxs”, “rasmiyatchi” ma’nosida izohlangan. *Ish bo‘lmaydi, kimki bo‘lsa qog‘ozboz, Qog‘ozbozlik bilan o‘tgay qish-u, yoz* (Habibiy)[3]. Ammo bu so‘zning zid ma’nosini ifodalovchi so‘z mavjud emas[4].

Binobarin, tilimizda ko‘pincha tushunchaning o‘zi bor-u, biroq uni nomlovchi so‘zning yo‘qligini anglamaymiz va uning zidini ifodalashga kelganda o‘ylanib qolamiz. Bunday so‘zlar bir talaydir: *majlisboz*– majlis o‘tkazishni yaxshi ko‘radigan, majlisbozlikka berilgan odam[5]. *Majlisbozlik* mavhum ot bo‘lib, “biror sabab-maqsad bilan bir yerga yig‘ilish” ma’nosini anglatadigan tojikcha *boxtan* fe’lining *-boz* hozirgi zamon asosini qo‘shib yasalgan sifatga, o‘zbek tilida *-lik* qo‘shimchasi qo‘shilgan, “bo‘lar-bo‘lmasga majlis o‘tkazaverish” ma’nosini anglatadi (O‘TIL, I, 440)[6].

Shuningdek, *maynavozchilik* (o‘zbek tilida tovush o‘zgarishlariga uchragan; aslida, *maynabozchilik*[7]), *oshna-og‘aynigarchilik* (*oshna-og‘ayni* juft oti tojikcha *oshna* va o‘zbekcha *og‘ayni* so‘zidan tuzilgan bo‘lib, “tanish-bilish, do‘st, birodar kishilar” ma’nosini anglatadi (O‘TIL, I, 556). Undan *oshna-og‘aynigarchilik, oshna-og‘aynilik, oshna-og‘aynichilik* otlari yasalgan[8]) so‘z va so‘z birikmalari ham bunga misol bo‘ladi. Bu tushunchalar leksik birliklar bilan to‘ldirilgan va u “bo‘sh” emas, ular real vaziyat bilan izohlanadigan ichki lingvistik lakunalardir[9].

So‘z turkumlariga mansubligiga ko‘ra ot turkumidagi lakunalar ko‘proq uchraydi.

Tadqiqot doirasida tahlilga tortilgan so‘zlarning antonimik munosabatlariga e’tibor qaratsak, tushuncha bor lekin, atovchi so‘zning mavjud emasligiga duch kelamiz. Xuddi shunday, suvsagan odam *chanqadim* deydi. Biroq choy, suv, qahva ichgisi kelmagan odamga shu ichimlik uzatilsa nima deydi? Bu o‘rinda *chanqamoq* fe’lining zidi yo‘q. Qolaversa, *chanqamoq* fe’li qahvadan o‘zga ichimliklarni atovchi otlar bilan distributsiya hosil qilishi mumkin, negaki suv va boshqa chanqoq qoldiruvchi ichimliklar – organizmning kislorodga bo‘lgan talabini qondirish omili. Vaholanki, qahva chanqoqni qondirish istagidan emas, tetiklashish, organizmning kofeinga ehtiyojini qondirish zaruratidan ichiladi. Sovuq qotsak, *isinmoqchiman*, deymiz. Kun isib, terlay boshlagan odam nima deydi? Turmushga chiqishga shoshilganlar o‘zbek lingvomadaniyatida *“xotinsiramoq”, “ersiramoq”* belgisi bilan tamg‘alanadi. Umuman oila qurish istagi yo‘q kishilar esa o‘zbek tilida maxsus belgiga ega emas. *Oilaparvar, bolajon* (oilaga, xalqqa nisbatan), *tirbandlik* so‘zining zidi nima? Bunda tushuncha bor – so‘z yo‘q, ya’ni ehtimoldagi so‘zning nomemasi “0” shaklda. Shu kabi, buzuqlik va behayo xatti-harakatlarni bildiruvchi evfemik va disfemik birliklarimiz mavjud (“*tungi kapalak”,“kapalak” – fohisha,buzuq...*)

---

[1] Ҳасанов А. Аъзам Ўктам шеърлари лексикасида интралакуналар // A’zam O‘ktam ijodi badiiyati. – Андижон. 2020. – B. 553-554.

[2] Қаландаров Ш. Ўзбек лингвомаданий муҳитида халқ мақоллари эвфемизацияси: Филол.фан. ... фалс. докт. дисс. автореф. – Тошкент, 2017.–Б.55.

[3] ЎТИЛ V том. – Тошкент: ЎзМЭ Давлат нашриёти, 2006. – Б. 358.

[4] Shaymardanova A.R. Intralingval lakunalarning lisoniy tabiati.// International conference of education, research and innovation. – Samara, Russian. 2023.– B.37.

[5] ЎТИЛ V том. Тошкент: ЎзМЭ Давлат нашриёти, 2006. – Б. 523.

[6] Bu haqida qarang: Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. III (Форсча, тожикча бирликлар ва улар билан ҳосилалар). – Тошкент: Университет, 2009. – Б.129.

[7] O‘sha manba. – Б. 130.

[8] O‘sha manba. – Б. 176.

[9] Shaymardanova A.R. Intralingval lakunalarning lisoniy tabiati.// International conference of education, research and innovation. – Samara, Russian. 2023.– B.38.

bo‘lgani holda, yaxshi xulq-atvorning umumiy ifodasi uchun etalon birlik yo‘q.

O‘z ishi, kasbi, hunarining texnikasini mukammal egallagan odam *ishbilarmon, mohir, chevar, usta* deyiladi, ammo mehnat faoliyatiga doir malakani to‘g‘ri o‘zlashtirmagan odamlarni atovchi so‘z mavjud emas. *Ishtonbog‘* bu – rezina o‘tkazilgan tasma (yoki rezinali ip), ammo kiyimlarning boshqa turli joylari: ko‘ylak yengi, bel qismiga qo‘yiluvchi rezina tasma o‘z nomiga ega emas[1].

Tildagi ichki voqelanuvchi lakunalar bir til paradigmalari ichida aniqlanadi. Mas., *chilla* so‘zi (yozgi chilla va qishki chillaning alohida nomlari qanday ataladi?).Yoki ichida bolasi bor sigirni *bo‘g‘oz*, oldin tug‘gan bo‘lsa-da, ayni paytda bo‘g‘oz bo‘lmagani *qisir* deyiladi. Insonlarga nisbatan *homilador*, homila bo‘lmasa – “0”, qarama-qarshi eshik-derazalar ochiq bo‘lganda o‘tib turadigan havo oqimi – *yelvizak* deyiladi ammo, yelvizak bo‘lmagan holat “0” – lakunadir.

Leksik-semantik usulda so‘z yasalishida hamda so‘z yangi ma’no kasb etib, polesemantik so‘zlar o‘rtasidagi ma’no zanjiri uzilsa, tilda yangi omonimlar yuzaga keladi. Mas., *uloq* (jonivor) – *uloq* (sportning bir turi), *bet* (yuz, aft) – *bet* (sahifa), *changal* (hayvonning changali) –*changal* (o‘simlik), *salla* (bosh kiyim) – *salla* (pishiriq), *chechak* (gul) – *chechak* (kasallik), *qavs* (yarim oy shaklidagi tinish belgisi) – *qavs* (burj), *tepki* (zarba) – *tepki* (kasallik), *dam* (havo) – *dam* (hordiq) – *dam* (temirchi bosqoni), *gul* (o‘simlik) – *gul* (kasallik), *kun* (quyosh) – *kun* (sutkaning yorug‘ qismi) kabilarning ma’nosi muloqotda birdan anglanmaydi. Bu esa omonimlar lakunarlik holatini keltirib chiqara olishidan darak beradi[2].

Agar lisoniy belgi nomutanosibligi nazariyasi faktlar asosida chuqur o‘rganilsa, omonimiya va sinonimiya haqidagi hozirgacha ustuvor bo‘lib kelgan tasavvurimizni o‘zgartirishga to‘g‘ri keladi. Chunki omonimiya va sinonimiyaning hosil bo‘lishi bevosita nutq (matn) bilan bog‘liq. Matnda kuzatiladigan omonimiya va sinonimiyani sof lisoniy, birlamchi, ular hosil bo‘lishining boshqa omillari (o‘zga til yoki shevadan olingan so‘z asliyat tilidagi belgining omonim yoki sinonimi bo‘lishi mumkinligi (atlas-atlas; lingvistika-tilshunoslik kabilar)) esa ikkilamchi omillaridir[3]. Bu esa lakunarlik holatini paydo qiladi[4].

Tilimizda mavjud ayrim lakunar so‘zlarning (O‘TIL asosida) ma’nosidan xabardorlik darajasini aniqlash uchun filologiya va fizika-matematika fakulteti talabalari orasida kichik so‘rovnoma o‘tkazdik (2-jadval). Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, inson hayoti va kundalik ehtiyoji uchun kerak bo‘lgan so‘zlarnigina xotirada saqlaydi. U uchun ahamiyatsiz so‘zlar esa e’tiborga olinmaydi. Zero, T.A.Degtereva ta’kidlaganidek, “*agar inson tafakkurida mavjud bo‘lgan har qanday tushunchani alohida tovush kompleksi bilan ifodalashga ehtiyoj sezilganida edi, tilning lug‘at tarkibi juda ko‘p so‘zlardan iborat bo‘lib ketar, natijada tilni o‘zlashtirish nihoyatda qiyinlashib qolar, til esa shu qadar tez rivojlanib, jamiyat hayotida yo‘l qo‘yib bo‘lmaydigan muomalaviy qiyinchiliklar tug‘ilardi*”[5].

2-jadval

O‘TIL asosida ayrim lakunar birliklarning ma’nosidan xabardorlik darajasini aniqlash uchun so‘rovnoma

Fakultetlar		**Filologiya fakulteti talabalari**			**Fizika fakulteti talabalari**	
T/p	Berilgan so‘zlar	U nima?	Qisman tushuncha bor	Taxmin	Bilmayman, eshitmaganman	Taxmin
1.	Xunasa	(5%)	(81%)	(14%)	(73%)	(27%)
2.	Shumg‘iya					
3.	Qilvir					

[1] Shaymardanova A.R. Intralingval lakunalarning lisoniy tabiati.// International conference of education, research and innovation. – Samara, Russian. 2023.– B.39.

[2] Shaymardanova A.R. Intralingval lakunalarning lisoniy tabiati.// International conference of education, research and innovation. – Samara, Russian. 2023.– B.40.

[3] Мирзаев И.Грамматика ўқитиш муаммолари. //Ўзбек тилшунослиги: тараққиёт тамойиллари, илмий муаммолар, истиқболдаги вазифалар. – Тошкент. 2013. – Б. 138.

[4] Shaymardanova A.R. Intralingval lakunalarning lisoniy tabiati.// International conference of education, research and innovation. – Samara, Russian. 2023.– B.40.

[5] Дегтерева А. Формы проявления семасиологических законов // “Законы семантического развития в языке” – М., 1961. – С. 3-4.

4.	Qirriq	(5%)	(81%)	(14%)	(73%)	(27%)
5.	Kalxamaj					
6.	Do‘kay					
7.	Hapqat					
8.	Hahra					
9.	Tegana					
10.	Huqqi					
11.	Po‘kon					
12.	Qorakesak					
13.	Bo‘jama					
14.	Qulg‘una					
15.	Ho‘ppoz					
16.	Bo‘ktargi					
17.	Moyxo‘rak					
18.	Saqmon					
19.	Qilliq					
20.	Tert					

Lakunarlik nazariyasi etnopsixolingvistikada madaniyatlararo muloqotni o‘rganadi va turli millat egalari dunyoqarashining mos kelmaydigan qismlarini aniqlash bilan shug‘ullanadi.

O‘zbek tilida lakuna – bu o‘zbek adabiy tiliga mansub, ma’nosi hammaga ma’lum bo‘lmagan birlik yoki grammatik shakl.

Intralingval yondashuv nuqtai nazaridan o‘zbek tilidagi lakuna matnning boshqa tillarga tarjima qilish jarayonida ifodaning yo‘qligida ham ko‘rinadi. Ular, o‘z navbatida, madaniyatlararo kommunikatsiyada biror bir konseptning ko‘rinishiga aylanadi. Tarjimadagi ushbu fragment muallifning fon bilimlari va mantiqiy xulosalari asosida kompensatsiyalash va to‘ldirish orqali tiklanadi.

Lakunalar nazariyasi – madaniyat, aloqa, muloqotdagi bo‘shliqlar, shuningdek, lakunalarni o‘rganishning usullari, maqsadi, asosiy tushunchalarini belgilaydi va olingan ma’lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish, qayta ishlash orqali birlashtiradi. Lakuna – tasavvurning mevasi emas, balki tilda obyektiv ravishda mavjud bo‘lgan birlik.

Intralingvistik holatda leksikadagi lakunarlik belgilarini aniqlash – qiziq, biroq juda murakkab jarayon. Sababi o‘zbek tilida ichki lingvistik lakunalarni aniqlash uchun hech qanday metodologiya ishlab chiqilmagan. Bu esa oldinda turgan va yechim topish lozim bo‘lgan muammolarimizdan biriga aylanadi.

Rezyume. Ushbu maqola tillararo va intralingval lakunalarning farqli va o‘xshash jihatlarini aniqlash, adabiy til va shevalar leksikasi o‘rtasidagi lakunarlik munosabatlarini izohlash va ular orqali adabiy til leksikasidagi lakunalarni to‘ldirish imkoniyatlarini asoslash,muloqotda faol qo‘llaniluvchi, kundalik faoliyat bilan bog‘liq muhim tushunchalar orasidagi bo‘shliqlarni to‘ldirish borasida takliflar ishlab chiqish, ijtimoiy axborot manbai chegaralangan hududlarda tilning sinxron va diaxron ko‘lamiga oid birliklarining, hududiy chegaralangan birliklarning kesishishi oqibatida, yashash sharoiti, rivojlanish imkoniyati jihatidan tamoman boshqa-boshqa tizimlarga mansubligi natijasida, ramzlar, imo-ishora kabi nolisoniy omillar ko‘rinishidagi lakunarlikning yuzaga chiqishiga sabab bo‘luvchi omillarni dalillash haqida.

Resume. This article aims to identify the differences and similarities between interlanguage and intralinguistic lacunae, explain the lacunary relations between the literary language and the vocabulary of dialects and justify the possibilities of filling gaps in the vocabulary of the literary language, develop proposals to fill the gaps between important concepts actively used in communication related to everyday activities, prove the causes of lacunarity in the form of such inexhaustible factors, as symbols, gestures, as a result of the intersection of units of synchronous and diachronic scale of language, geographically delimited units in territories limited by a source of social information, belonging to systems that are completely different in terms of living conditions and development opportunities.

Резюме. Данная статья призвана выявить различия и сходства межъязыковых и внутриязыковых лакун, объяснить лакунарные отношения между литературным языком и лексикой диалектов и обос-

новать возможности заполнения ими лакун в лексике литературного языка, разработать предложения по заполнению пробелов между важными понятиями, активно используемыми в коммуникации, связанными с повседневной деятельностью, доказать причины возникновения лакунарности в виде таких неисчерпаемых факторов, как символы, жесты, в результате пересечения единиц синхронного и диахронного масштаба языка, территориально разграниченных единиц на территориях, ограниченных источником социальной информации, принадлежности к совершенно разным по условиям жизни, возможностям развития системам.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, та'lim. 2024; 12
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

NIKOH MAROSIMLARIDA MILLIY O‘ZLIKNING AKS ETISHI

Dusnazarova Mavjuda Ilyamonovna,
Termiz davlat universiteti davlat va huquq asoslari kafedrasi o‘qituvchisi

Til har bir xalqning madaniyati va ijtimoiy munosabatlarini aks ettiruvchi asosiy vositadir. Xususan, nikoh marosimlari kabi ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan hodisalar til orqali milliy o‘zlikni ifodalashning yorqin namunasidir. Ushbu marosimlarda ishlatiladigan ramziy atamalar, ritual matnlar va kuy-qo‘shiqlar milliy madaniyatning lingvistik jihatlarini aks ettiradi. Nikoh marosimlari davomida so‘zlashuv va yozma matnlarda xalqning urf-odatlari, qadriyatlari va madaniy xotirasi til orqali namoyon bo‘ladi.

Mazkur tadqiqot nikoh marosimlarida qo‘llaniladigan lingvistik vositalarni o‘rganish va ular orqali milliy o‘zlikning aks etishini tahlil qilishga qaratilgan. Maqolada lingvistik ramzlar, ritual nutq va badiiy matnlarning semantik va pragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Ushbu tahlillar tilning madaniy va ijtimoiy vazifalari haqida kengroq tasavvur beradi. Nikoh marosimlaridagi til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligini o‘rganish milliy o‘zlikni saqlash va avlodlar o‘rtasida madaniy uzviylikni ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega.

Nikoh marosimlari har bir xalqning madaniyati va urf-odatlarini aks ettiruvchi ramziy hodisalar tizimining muhim qismidir. O‘zbek xalqining nikoh marosimlarida til ramzlari nafaqat aloqa vositasi sifatida, balki jamiyatdagi ijtimoiy rollarni belgilash vositasi sifatida ham ishlaydi. “Kelin salom” kabi iboralar ramziy ma'noda yangi oila a'zolari bilan kelinning ijtimoiy munosabatini belgilaydi. Ushbu marosimda kelinning yangi oilaga hurmatini ko‘rsatishi va bu hurmatning xalq qadriyatlari asosida til vositasida ifodalanishi milliy o‘zlikning yorqin ifodasidir[1].

“Kuyov navbati” marosimi ham ramziy iboralarga boy bo‘lib, kuyovning ijtimoiy va oilaviy rolini belgilashga xizmat qiladi. Ushbu ibora orqali kuyovning oila boshlig‘i sifatidagi mavqeyi til vositasida mustahkamlanadi. Bu kabi ramzlar milliy qadriyatlar, ijtimoiy rollar va o‘zbek jamiyatining urf-odatlarini avloddan-avlodga yetkazadi. Lingvistik ramzlar semantik jihatdan xalqning tarixiy va madaniy xotirasini aks ettiradi[2].

Ramzlarning lingvistik tahlili shuni ko‘rsatadiki, ular orqali xalqning urf-odatlari va qadriyatlari saqlanadi. Masalan, «kelin salom» marosimida ishlatiladigan «hurmat qilish», «ta'zim» kabi iboralar va jarayon davomida aytiladigan so‘zlar nafaqat kelinning yangi vazifasini, balki uning yangi jamiyatga moslashish ehtiyojini ifodalaydi. Shuningdek, «to‘y» so‘zining o‘zi ham madaniy jihatdan ahamiyatlidir. Bu so‘z o‘zbek tilida shunchaki bir marosimni emas, balki jamoatchilik birligini, oilaviy qadriyatlarning muhimligini aks ettiradi[3].

Ushbu ramzlar madaniy uzviylikni ta'minlashda va milliy o‘zlikni saqlashda muhim rol o‘ynaydi. Til-

[1] O‘razboyev O. R. O‘zbek va qoraqalpoq tillarida nikoh marosimlari bilan bog‘liq leksik qatlam tadqiqi // Лучшие интеллектуальные исследования. 2024. №1, – B.91-98.

[2] Panjiyeva Sh. O. Lingvokulturologiya fanining yuzaga kelish tarixi // Oriens, 2022. №4. – B. 387-391.

[3] https://uza.uz/oz/posts/til-milliy-tafakkur-ramzi-va-taraqqiyot-asosi_416848